

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024/6-SON
ILLOVA TO'RPLAM

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

M.Radjabova

Tarix fanini o'qitishda foydalaniladigan metodlar 322

D.D.J.NizomitdinovXV – XVII asr birinchi yarmida nemis tarixshunosligida Amir Temur shaxsi tavsifi va uning
harbiy yurushlari talqini 325**Қ.А.Пулатов**Борьба с полигамией, гендерным равенством и секуляристической сущностью в
социальных взглядах джадидов: научный анализ 329

ADABIYOTSHUNOSLIK

R.A.Ortiqov

Ingliz bolalar adabiyotidagi sarguzasht-fantastik asarlar poetikasiga doir 336

I.M.Jo'rayev

Zahiriddin Muhammad Bobur merosida xotin-qizlar obrazining tarixiy talqini 341

O.Z.DadajonovMaqsud Shayxzodaning "Mirzo ulug'bek" va Bertold Brextning "Galiley hayoti" dramalarida
olimlik motivi 350**S.A.Olimjonov**

Erix Mariya Remark va Ulug'bek Hamdam asarlarida badiiyat muammolari 354

A.A.Qosimov

The role of mythonyms in Tolkien's works and their linguistic analysis 360

A.A.Qosimov

Linguistic analysis of metaphors in Tolkien's novels 366

Д.Ш.Ибрагимова

Подходы преподавания зарубежной литературы в иноязычном контексте 370

M.N.Abduolimova

Lexical-structural features of mythonyms 376

N.Qurbanov

Intensification and Deintensification Expressed Through Hyperbola in English Novels 380

S.O'.Shermamatova

Teenager image in "Treasure island" by Robert Louis Stevenson 383

N.I.Tairova

XX asr adabiyotida ramziy obrazlarning poetik xususiyatlari doir 386

S.S.Usmanova

Psixologizm tarixiy asarda yetakchi obraz usuli sifatida 390

A.O'.Abdullayev

Ramz belgining maxsus turi sifatida 395

K.A.Toipvoldiyev

Реальный восток М.Ю.Лермонтова 401

А.А.Касимов, Р.Н.ДжагаспанинПроблема народного героя в литературе как отражение национального
самосознания 406**Р.Н.Джагаспанин**Интерпретация образа Степана Разина как воплощение идеалов казачества в романе
В.М.Шукшина "Я пришел дать вам волю" 412**А.Р.Косимов**

Сатира – литературный инструмент В.Шукшина (на примере романа «Любавины») 422

О.А.Акбаров

Национальная идентичность и культурная память в современной прозе 427

Э.Ф.ГиздулинИсторическое развитие постапокалиптических мотивов в
художественной литературе 431



УО'К: 829.1122.2.0+82.99

**MAQSUD SHAYXZODANING "MIRZO ULUG'BEK" VA BERTOLD BREXTNING
"GALILEY HAYOTI" DRAMALARIDA OLIMLIK MOTIVI**

**НАУЧНЫЙ МОТИВ В ДРАМАХ «МИРЗО УЛУГБЕК» МАХСУД ШАЙКЗОДЫ И
«ЖИЗНЬ ГАЛИЛЕЯ» БЕРТОЛДА БРЕХТА**

**SCIENTIFIC MOTIF IN THE DRAMAS "MIRZO ULUGBEK" BY MAQSU SHAIKZODA
AND "THE LIFE OF GALILEO" BY BERTOLD BRECHT**

Dadajonov Oybek Zokirjonovich 

Farg'ona davlat universiteti filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya

Maqolada Maqsud Shayxzodaning "Mirzo Ulug'bek" va Bertold Brexning "Galiley hayoti" dramalarida olimlik motivi haqida so'z yuritilgan. Ushbu dramalarda olimlik martabasi to'g'risidagi fikrlar misollar tariqasida keltirilib, poetik usullar yordamida tahsilga tortilgan. XX asr o'zbek mumtoz adabiyotida munosib o'runga ega atoqli dramaturg yozuvchi Maqsud Shayxzodaning ijodi ikkinchi jahon urushi davriga to'g'ri keladi. Ulug' Vatan urushi yillarda shoir butun ijodini quvvatini, qalb haroratini dushman ustidan q'alaba qozonishiga safarbar etdi. Bertold Brecht ijodining katta qismi ham ayni urush yillardiga to'g'ri kelib, adolatsizlikka qarshi isyon, haqiqatni himoya qillish va eng asosiysi – urushga, fashizmga qarshi kurashdan iborat bo'ldi. Qariyb o'n besh yilni o'zga davlatlarda yashab ijod qilgan nemis dramaturgi asarlarida olg'a surilgan bosh g'oya urushlarning ma'nisizligi va bu orqali insoniyat boshiga tushgan zulm va zo'ravonlik, ilmsizlik, adolatsizlik kabi mavzular uning asarlarida dolzarbligicha qolaveradi.

Аннотация

В статье говорится о мотиве науки в драмах «Мирзо Улугбек» Махсуда Шайхзаде и «Жизнь Галилея» Бертольда Брехта. В этих драмах в качестве примеров представлены и анализируются поэтическими методами представления о научной карьере. К периоду Второй мировой войны относится творчество Максуда Шайхзады, известного драматурга, занявшего достойное место в узбекской классической литературе XX века. В годы Великой Отечественной войны поэт мобилизовал всю свою творческую энергию и теплоту сердца на победу над врагом. Большая часть творчества Бертольда Брехта связана с военными годами и заключалась в восстании против несправедливости, защите правды и, самое главное, борьбе с войной и фашизмом. Основная идея, выдвинутая в произведениях немецкого драматурга, прошедшего почти пятнадцать лет в других странах, — бессмысличество войн и тех угнетения и насилия, невежества и несправедливости, которые через это обрушились на человечество, и эти темы остаются актуальными и в его произведениях работает.

Abstract

The article talks about the motive of science in the dramas "Mirzo Ulugbek" by Maqsu Sheikhzadeh and "The Life of Galileo" by Bertold Brecht. In these dramas, ideas about the scientific career are presented as examples and analyzed using poetic methods. The work of Maqsud Shaikhzoda, a famous dramatist who has a worthy place in the Uzbek classical literature of the 20th century, dates back to the period of the Second World War. During the years of the Great Patriotic War, the poet mobilized all his creative energy and warmth of his heart to win over the enemy. Most of Bertold Brecht's work coincided with the war years, and consisted of rebellion against injustice, protection of truth and, most importantly, the fight against war and fascism. The main idea put forward in the works of the German playwright, who spent almost fifteen years in other countries, is the meaninglessness of wars and the oppression and violence, ignorance, and injustice that befell humanity through this, and the themes remain relevant in his works.

Kalit so'zlari: dramaturg, olim, tragediya, shogird, astronom, koinot, kashfiyat, qahramon, vatanparvar, xalq

Ключевые слова: драматург, учёный, трагедия, студент, астроном, вселенная, открытие, герой, патриот, нация.

Key words: era, hero, man, society, family, honesty, justice, faith, life, naturalism, theater, audience.

KIRISH

Urushning shavqatsiz voqealari hukm surib turgan damlarda o'zbek yozuvchilari oldida o'ta ma'suliyatli, shu bilan birga xatarli vazifalar ko'ndalang qo'yilgan edi. Bir tarafdan ibratlari badiiy asarlar orqali xalqni ibrat olishga da'vat etish, vatanparvarlik fazilatlari ruhida tarbiyalash masalasi

ADABIYOTSHUNOSLIK

o'rta tashlangan bo'lsa, boshqa tarafdan ushbu yaratilgan asarlarga katta hajmdagi cheklovlari qo'yilgan edi. Shunday bosimlar ostida ijod qilgan Maqsud Shayxzoda o'zbek xalqining jasur va mard farzandlarini xalqqa tanitish, ular qilgan ulkan ishlarini butun ommaga olib chiqishni maqsad qilgan edi. Ushbu maqsad yo'lida dramaturg o'zbek tarixiy shaxslariga murojaat qiladi va 1964 yilda "Mirzo Ulug'bek" tragediyasini yozib tugatadi. Asar tarixiy-biografik janrda yaratilgan bo'lib, besh pardadan iborat. Tarixiy shaxslarga murojat qilish XX asr nemis adabiyotida ham o'ziga hos urfga aylangan edi. Deyarli Maqsud Shayxzoda bilan bir davrda ijod qilgan Bertold Brext ham o'z xalqini vatanparvarlik, millatsevarlik ruhida tarbiyalash yo'lida "Galiley hayoti" (Leben des Galilei 1939-1943), dramasini yozib tugatadi. Bertolt Brextning (1898-1956) "Galiley hayoti" pyesasining premyerasi 1943 yil Zyurixda bo'lib o'tadi. Asar real voqealarga asoslangan bo'lib, XVII-asrda yashab, ijod qilgan Galileo Galiley haqida hikoya qiladi. Brext asar qahramoni Galiley haqida to'xtalib, shunday degan edi:

"Leben des Galilei zeigt den Anbruch einer neuen Zeit und versucht, einige Vorurteile über den Anbruch einer neuen Zeit zu revidieren" [1].

Galileyning yangi zamon tongini ko'rsatadi va yangi davrning boshlanishi haqidagi ba'zi noto'g'ri qarashlarni yengishga harakat qiladi. (Tarjima bizniki – O.D.)

Asar qahramoni Galiley butun umrini fanga bag'ishlab, koinot tuzilishi ustida tadqiqot olib boradi. Uning maqsadi teleskopni yanada rivojlantirish orqali, quyosh koinotning markazida ekanligini isbotlash edi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Brext va Shayxzoda asarlarida ikki buyuk olimlar hayoti va ijod qirralarini ochib berar ekan, ularning aql-zakovati, donoligi va xalq uchun qilgan buyuk xizmatlariga alohida to'xtalib o'tishadi. Shu bilan birga o'sha davr jamiyatidagi jaholat, adovat, tengsizlikka qarshi mardonavor kurash olib borgan vatanparvar, millatsevar siymolarni jonli yoritib berishga harakat qiladilar. "Mirzo Ulug'bek" tragediyasi yuksak mahorat bilan yozilganligi ko'plab olimlar tomonidan ta'kidlab o'tiladi. Naim Karimov ushbu asar haqida fikr bildirar ekan, "Insoniyat jahonshumul kashfiyotlar oldida yuzma-yuz turgan bir paytda Shayxzoda sharqning buyukligini tasdiqlovchi yana bir mavzuga qo'l urib, buyuk vatandoshimiz — astranomiya ilmiga poydevor qo'ygan olimlarning biri haqida asar yaratadi." [2]. Darhaqiqat dramada Ulug'bek olim sifatida olam va koinot hodisalarining bilmadoni, ilm-fan, xususan, astronomiya sohasida buyuk kashfiyotlar egasi, oilada esa masuliyatli, jonkuyar va mehribon ota, kezi kelganda talabchan va qattiqqo'l inson timsolida gavdalanadi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Galiley esa o'zining ilmiy kashfiyoti orqali quyosh koinotning markazida ekanligi va barcha sayyoralar uning atrofida aylanish nazariyasini isbotlash ustida timmsiz izlanishlar olib boradi. XVII asrda insonlar hali ham geosentrik dunyoqarashga, ya'ni yer markazi koinot deb ishonishgan. Galiley yangi dunyoqarashga ishonch hosil qilgan holda kishilar fikrining o'zgartirishga, ko'plab ilmiy nazariyalari bilan dalilllashga urinadi. Galiley kam haq to'lanadigan olim bo'lgani bois doimo nochor hayot kechiradi. Biroq u o'z maqsadidan hech qachon ortga qaytmaydi. Olim hayotidagi yetishmovchilikdan nolmaydi. Uning boyligi fanda deb biladi va shunday deb aytadi:

"Eine Hauptursache der Armut in den Wissenschaften ist meist eingebildeter Reichtum. Es ist nicht ihr Ziel, der unendlichen Weisheit eine Tür zu öffnen, sondern eine Grenze zu setzen dem unendlichen Irrtum. [3].

"Fandagi qashshoqlikning asosiy sababi odatda hayoliy boylikdir. Uning maqsadi cheksiz donolikka eshik ochish emas, balki cheksiz xatoga chek qo'yishdir.

Brext asar qahramoni Galiley misolida boylik fanda muhim ahamiyat kasb etmasligini, balki kishilarning boylikka hayoliy berilishi ilm-fanda chinakam qashshoqlikka olib kelishini ta'kidlab o'tadi.

Shayxzoda qahramoni Ulug'bek Galileydan farqli o'laroq ham olim, ham shoh obrazida talqin etiladi. Biroq uning olimlik martabasi shohlikdan bir bosh ustun turadi. Sababi har bir ishda bosiqlik, donolik bilan fikr yuritib, xalq ko'ngliga birdek yo'l topa oladi. Bu esa Ulug'bekning yuksak bilim va ilm egaligidan dalolat beradi. Dramani o'qir ekansiz, qarshingizda ilmni hamma narsadan ko'ra ustun biladigan, adabiyot va san'at ahliga cheksiz hurmat bilan qaraydigan, shogirdlariga beminnat koinot sirlarini o'rganishda yo'l ko'rsatuvchi olim, ustoz qiyofasi namoyon bo'ladi. Shayxzoda dramada bosh qahramon Ulug'bekni ulug' olim, salobatlari va salohiyatli shaxs sifatida

katta mahorat bilan tasvirlaydi. Bu haqda adabiyotshunos olim H.Abdusamatov shunday eslaydi. "Muallif birinchi navbatda Ulug'bekning buyuk olim — astronom ekanligini, uning yulduzlarning o'rnini aniqlash, jadval tuzish sohasidagi cheksiz ilmiy xizmatlarining ahamiyatini, uning ta'lilotining ilg'or kishilar tomonidan sevib quvvatlashini yoritib beradi." [4].

Dramada Ulug'bek shoh sifatida emas, balki oddiy olim tilidan aytigan mana bu so'zlar turli davralarda shogirdlari, ilm ahliga munosabati, ular uchun qayg'urishi, sermulohazali dono fikrlari bilan xuddi farzandlaridek munosabatda haqiqiy inson bo'lganligini yaqqol ko'rsatib turadi:

Ilm yo'llida himmattingiz muborak bo'lsin!

Lekin, sizga ketish oldi ba'zi maslahat:

Avval shuki, ilm nurin xalqqa eltishda

Tushunarli tilda aytung maromingizni.

hikmat, niyoziyat, falakiyotning.

Tabobatning, jug'rofiyaning hamma dasturi

Insonlikka naf qilmasa bu katta nuqson. [5].

Tarixdan ma'lumki Ulug'bek ilm-ma'rifat homiysi bo'lib, o'z shogirdlariga faqat yaxshiliklarni tilagan holda har birlari uchun qimmatli maslahatlar bergen. Yuqorida aytigan fikrlari bilan yaratilgan kashfiyotlar insoniyat uchun faqat manfaatli bo'lishi lozimligini alohida tushuntirib o'tadi. 1564 yilda Piza shahrida tug'ilgan Galileo Galilei ham o'z shogirdlariga Ulug'bek kabi otalardek munosabatda bo'ladi. Uning falakiyot haqidagi bilmlari jahon tarixida o'chmas iz qoldiradi. O'sha zamon kishilar tomonidan olim Galileyni o'z davridan oldinda bo'lgan odamlardan biri sifatida qaralgan. Qizig'i shunga o'xshash ta'rif Ulug'bek siyemosiga ham berilgan. Bu haqda Izzat Sulton fikr bildirib, "Mirzo Ulug'bekda" M. Shayxzoda bosh qahramonning hayoti fojiasini uning o'z zamonasidan juda ham ilgari ketganini, bosh qahramonning ideallari bilan tarixiy sharoit o'rtasidagi o'tkir konflikt bosh qahramon hayoti fojiasining asosini tashkil etishini" [6] aytib o'tadi. Darhaqiqat hayot o'zi muqarrar ravishda Ulug'bekni buyuk qilib yaratadi. Biroq yakunda o'z fazilatlari qurbaniga aylanadi. Galiley ham Ulug'bek singari tarixda yetuk siymo sifatida qoladi. Ma'lum sohani chuqur o'rganish, shu sohaning yetuk mutaxassisini bo'lib yetishish insondan katta mehnat talab etadi. Tinimsiz izlanishlar natijasi bu ikki tarixiy shaxsni olimlik maqomiga yetaklaydi. Galiley garchand hayotda faqirlardek yashagan bo'lsa-da, unig ilmiy izlanishlari kishilarni doim hayratda qoldirishga erishgan. U o'zining tadqiqot natijalarini geliosentrik dunyo modeli bilan taqdim etar ekan, unda sayyoralar quyosh atrofida aylanadi va quyosh tiziminining markazida ekanligini isbotlab beradi.

"Ich würde meinen, als Wissenschaftler haben wir uns nicht zu fragen, wohin die Wahrheit uns führen mag." [7].

"Olim sifatida biz o'zimizdan haqiqat bizni qayerga olib borishi haqida so'rashimiz shart emas deb o'ylayman." (Tarjima bizniki – O.D.)

Olimlar haqida gapirilganda, avvalo olimlik maqomiga kimlar loyiq va ular qanday xususiyatlarga ega bo'lishi lozim? degan savol tug'iladi. Galiley olimlik sifatlari tog'risida so'z yuritar ekan, haqiqiy olim bilmaga chanqoq, olam va uning mohiyatini bilishni istaydigan, haqiqatparvar, millatsevar insonlarni tushunishini aytadi. Galiley fikricha o'zining kashfiyotlari haqiqat ortidan quvmasligi, buning oxiriga yetib borolmasligi, olimlarning ishlari faqatgina muvaffaqiyat, olqishlardan iborat emasligini tushunadi. Olimlik martabasi va uning masuliyati har doim dolzarbigini yo'qotmagan. Inson o'zini olim deb butun dunyoga jar solishlik to'g'ri emas. Olimlik martabasini atrofdagilar birinchi navbatda tan olishlari va unga o'z munosabatlarini bildirishi lozim. "Mirzo Ulug'bek" dramasida mana shunday mazmundagi gap Ali Qushchi tomonidan Ulug'bekka aytildi.

Ustoz, uzrim qabul eting, chunki fanda ham

Bizlar sizni olimlarga sulton bilamiz. [8].

Bu bilan M.Shayxzoda Ulug'bekni buyuk mamlakat sultoni bo'lishligi bilan birlgilikda olimlarning ham sultoni deb aytib o'tadi. Ma'lumki Ulug'bek siyimosi nafaqat buyuk olim balki, adaolatparvar Sulton sifatida ham xalq ishonchini qozongan edi. Har bir sohani yetuk sultoni bo'lgani kabi adabiyotda ham o'zining sultonlari bor. Bir paytlar A.Qahhor shunga o'xshash ta'rifni Maqsud Shayxzodaga bergen edi:

ADABIYOTSHUNOSLIK

“Maqsud Shayxzodaning ilmiy ijodi qadri o’zbek adabiyotshunosligining yarmini tashkil etadi, qolgan yarmini boshqa ilmiy adabiyotshunoslar taqsim qilib olishar” [9], deya adibning olimlik rutbasini yuksak e’tirof etgan edi. O’zbek adabiyotida Shayxzoda nafaqat shoir va dramaturg, balki taniqli olim sifatida ham nom qozongan. U ko’pqirrali ijodkor sohibi bo’lgani uchunmi A. Qahhor alohida e’tirof etgan edi. Galiley va Ulug’bek buyuk olimlar, ilm fanga qo’shgan ulkan mehnatlari bilan tarixda qolishdi. Ilm to’g’risida aytgan har bir fikrlari bugungi kun uchun ham o’z ahamiyatini yo’qotmagan. Bu ikki buyuk shaxs koinot sirlari, xususan yulduzlar tuzulishi va ularning joylashishi, nomlanishi bilan ilmiy izlanishlar olib borishgan. Quyida biz ikki olimning yulduzlar bilan insonlar to’g’risidagi ma’noli fikrlari bilan tanishib chiqamiz. Ushbu olimlar insonlarning olyjanob, pok niyatli bo’lishini, o’zlar oldiga faqat yuksak marralarni qo’yishini, hayot yo’llarini aql nuri bilan yoritib yashashlarini hohlaydilar. Odamlarni yulduzlar olamidan ibrat olishlariga chaqiradi.

„Den Gestirnen gegenüber sind wir wie Würmer mit trüben Augen, die nur ganz wenig sehen. [10].

“Yulduzlar qarshisida biz, xuddi mayda hashoratlardek juda kichik bo’lib ko’rinamiz. (Tarjima bizniki – O.D.)

Ushbu fikri bilan olim Galiley insonlar ming oldinga intilgani bilan koinot odida zarracha jismdek ko’rinishini aytib o’tmoqchi bo’ladi. Buning o’ziga yarasha sabablari bor. Olim olamshumul kashfiyotlari bilan dunyoni yaxshi tomonga o’zgarishiga umid bog’lagan bir paytda katolik cherkovi uning topilmalarini rad etadi va shuning uchun u bilan ziddiyatga boradi. Katolik cherkovi ruhoniylari Aristotel tomonidan qurilgan qadimgi dunyoqarashning o’zgarishini istamaydilar. Ular Galileyning tadqiqot natijalarini rad etadilar. Ulug’bek olim va hukmdor sifatida boshidan ko’p narsalarni kechiradi. Biroq uning hukmdorlikdan ko’ra ilm-fan, ma’rifat va madaniyatni rivojlantirgan shaxs timsoli ko’z o’ngimizda gavdalananadi. U o’z xalqiga buyuk niyati oldida faqat olg’a yurishini g’anim va sotqinlarga hech bosh egmaslikni maslahat beradi va shunday deydi:

Ey, odamzod, ibrat olgin yulduzlardan sen

Xayrixohlik va balandlik xislatlarida.

Shaltoqlarda ao’namagin, ko’taril, yuksal,

So’qir baxtdan ko’rar ko’zli baxtsizlik afzal. [11].

XULOSA

Xulosa tariqasida shuni aytish mumkinki, Maqsud Shayxzoda va Bertold Brext dramalarida o’ziga hoslik va o’xshash jihatlarni ko’rish mumkin. Ikki olim Ulug’bek va Galiley koinot ilmini o’rganib, yangi kashfiyotlari bilan inson taqdirini yaxshi tomonga o’zgartirishga harakat qiladilar. Olimlar ilm-ma’rifat orqali turli hunrezliklarga barham berilishni, mamlakati, vatanida adolat o’rnatalishini, xalqini ahvoli yaxshilanishini, yurtida adolat hukm surishini orzu qiladilar. Ushbu jihatlari orqali ikki olimning o’xshashlik tomonlari namoyon bo’lsa, Ulug’bek shoh va olim, Galiley esa oddiy nochor ilm kishisi sifatida tasvirlanadi. Ulug’bek yaqinlari va yon atrofidagilar fitnasi qurban bo’lsa, Galiley cherkov rohiblari tomonidan doimiy bosim osdida bo’ladi. Ulug’bekdan farqli ravishda Galiley dramada o’limdan qochib qutilib qoladi. Keltirib o’tilgan bu jihatlarda ikki asar bosh qahramonlarining o’ziga xos tomonlari ko’zga tashlanadi. Umuman olganda Shayxzoda va Brext o’z qahramonlari timsolida jamiyat uchun naf keltiradigan o’z yurti ravnaqini o’ylaydigan vatanparvar, millatsevar insonlarni tarbiyalashni orzu qiladilar. Qaysidir ma’noda buning uddasidan chiqishdi desak hech ham mubolag’ a bo’lmaydi

ADABIYOTLAR RO’YXATI

- http://web.mit.edu/21f.404/www/Aufsaetze/Alte%20Aufsatztthemen/Aufs_III_S04.pdf
- Найм Каримов. XX аср адабиёти манзаралари. Биринчи китоб. Тошкент. О’zbekiston. 358.
- Bertolt Brecht. Leben des Galilei. Verlag. Suhrkamp, 1963. S. 85.
- Abdusamatov H. Drama nazariyasi. Toshkent. G’ofur Gulom nomidagi Adabiyot va san’at nashryoti. 2000. – B. 175.
- Maqsud Shayxzoda. Turkiy adabiyot durdonalari. “O’zbekiston” Toshkent. 2022. – B. 305.
- Izzat Sultan. Adabiyot nazariyasi. O’qituvchi. Toshkent. 2005. – B. 196.
- Bertolt Brecht. Leben des Galilei. Verlag. Suhrkamp, 1963. S. 49.
- Maqsud Shayxzoda. Turkiy adabiyot durdonalari. “O’zbekiston” Toshkent. 2022. – B. 307.
- Maqsud Shayxzoda. Turkiy adabiyot durdonalari. “O’zbekiston” Toshkent. 2022. – B. 5.
- Bertolt Brecht. Leben des Galilei. Verlag. Suhrkamp, 1963. S. 49.
- Maqsud Shayxzoda. Turkiy adabiyot durdonalari. “O’zbekiston” Toshkent. 2022. – B. 169.